



2. OPENSERVERNİ O‘RNATISH QOIDALARI



OpenServer kichik hajmli erkin tarqatiluvchi Windows OS uchun mo'ljallangan Veb-serverdir. Uni yuklab olish uchun <https://ospanel.io/> manziliga kirish kerak. Dasturni o'rnatish uchun faylni arxivdan chiqarish etarli bo'ladi (1-rasm). Bunga javoban ekranga chiqarilgan o'rnatish oynasi ishi tugallanib avtomatik yopiladi.




1-Rasm

So'ngra dasturni o'rnatib uni sozlash bosqichiga o'tiladi. Buning uchun dasturiy ta'minot joylashtirilgan katalog C:\OpenServer ga o'tiladi. Bu katalog ichida quyidagi yuklovchi fayl va uchta ichki katalog joylashgan:


- Domains - Foydalanuvchi saytlarni saqlash uchun mo'ljallangan katalog.
- Modules - Katalogida modullarning boshqaruvchi fayllari, ularning ishlashi uchun zarur bo'lgan kutubxona fayllari va qo'shimcha fayllar joylashgan.
- Userdata - Foydalanuvchilarning berilgan bazalari, xesh fayllari xamda modul konfiguratsiyasi fayllari saqlanadi.

Windows OS turiga qarab .exe - fayllardan birini ishga tushiramiz, masalan OpenServer86.exe va quyidagi ko'rinishdagi muloqat oynasi ochiladi (2-rasm).




2-Rasm

Buyruqni tasdiqlagandan so'ng, kompyuter ekrani quyi qismidagi uskunalar panelida, qizil bayroqcha ko'rinishidagi yorliq paydo bo'ladi (3-rasm).




3-Rasm

Ushbu bayroqcha yorlig'iga sichqoncha o'ng tugmasini bosilib (Настройка) sozlash bo'limi tanlanadi (4-rasm).




4-Rasm

Dastur bosh oynasi ekranga chiqariladi (5-rasm).




5-Rasm

Oyna "Модули" bo'limidan PHP7.0 punkti tanlanadi. So'ngra "Домен" bo'limiga o'tilib "Автопоиск доменов" punkti belgilanadi (6-rasm).



6-Rasm


Oxirida "Сохранить" saqlash tugmasi bosilib sozlashlar oynasini yoramiz.



7-rasm

Faylni OpenServer/domains/localhost/php7 ichki katalogiga bloknot dasturi vositasida index.php nomi bilan hamda UTF-8 kodirovkasida yaratilgan faylni saqlaymiz (7-rasm) va 8-rasmdagi kabi natijaga ega bo`lamiz.

PHP - sahna HTML - u hujjatda shakllantirilishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, PHP ham va HTML - kod ham hech bir muammosiz aynan bitta faylda mavjud bo`lishi yoki saqlanishi mumkin. Bunda asosiysi tadbiiq etilayotgan PHP - kod tegi ichida bo`lishi va u kodni talqin qilish uchun PHP - harakat tomonidan tanlab olinadi. Odatda, PHP - kod HTML sahifa asosiy qismida mavjud bo`lgan ma`lumotlarni beradi, so`ngra u foydalanuvchining veb - brauzeriga uzatiladi.



8-Rasm